



## SHOULD PARENTS BE EDUCATED BEFORE EDUCATING THEIR CHILDREN?

Yuldoshova Mashhura

Student, Faculty of English Language,  
Foreign Languages and Literature Department, JSPU

### Abstract

This scientific article examines the educational and pedagogical role of parents and the importance of preparing children for the learning process. It also analyzes the significance of educating parents for involvement in the educational process and how this affects their children's development and academic success.

**Keywords:** Parents, child, education, strictness, moral and ethical condition, vulnerability, educational approach, psychological and spiritual maturity, trust, psychological chain, success, reform.

### Introduction

#### FARZANDNI O'QITISHDAN AVVAL OTA-ONANI O'QITISH KERAKMI?

Yuldoshova Mashhura

JDPU xorijiy til va adabiyot yo'nalishi ingliz tili fakultet 1- kurs talabasi.

### Annotatsiya:

Mazkur ilmiy maqolada ota-onaning tarbiyaviy va pedagogik rolini, farzandlarning ta'lim jarayoniga tayyorligini oshirish o'rganilgan. Shuningdek, ota-onani ta'lim jarayoniga tayyorlashning ahamiyati, ularning farzandlari rivojlanishi va akademik muvaffaqiyatiga ta'siri tahlil qilinadi.

**Kalitlar so'zi:** ota-ona, farzand, ta'lim, qattiqqo'llik, ma'naviy-axloqiy holat, zaiflik, tarbiyaviy yondashuv, ruhiy-ma'naviy saviya, ishonch, psixologik zanjir, muvaffaqiyat, islohot.



Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti, avvalo, insonning ma'naviy va madaniy yetukligiga bog'liq. Ammo hali ham chekka hududlarda ilm va tarbiyaga to'liq e'tibor berilmagan oilalar mavjud. Ko'p hollarda farzandning bilim olishiga to'siq bo'layotgan narsa\_ota-onaning o'zidir: ularning dunyoqarashi, tarbiya usuli yoki noto'g'ri tushunchalari. Ba'zi ota-onalar hanuzgacha "farzand faqat ish qilib pul topishi kerak" deb o'ylaydi. Shunday oilalarda o'sayotgan bolalar o'z orzularini aytishdan ham qo'rqadi, chunki ota-onaning qattiqqo'lligi yoki tor fikrliligi ularga yo'l qo'ymaydi. Bu esa farzandning ilm olish yo'lida qiyinchilik yaratadi. Mana shunday holatlar – ota onaning o'qimaganligi, axloq-ma'naviy jihatdan zaifligi, tarbiyaviy yondoshuvda bo'sh qolishi- farzandning maktabga tayyorligi, sinfda faol ishtiroki, uyda o'qishga motivasiyasida muammolar keltirib chiqaradi.

Ko'pchilik hollarda biz "bola yomon bo'ldi", "o'qishga qiziqmadi" deymiz, ammo bu holatning ildizini ota-onalarning tarbiyaviy yondashuvida izlashni unutamiz. Bunday oilalarda o'sgan o'quvchi, ko'pincha, "otamdan qo'rqaman", "men hech qachon u kishiga yoqmayman", "mening fikrim ahamiyatsiz" degan ruhiy bosimda ulg'ayadi. Natijada bunday bola nafaqat o'z maqsadlarini erkin ifoda eta olmaydi, balki o'qishga va hayotga bo'lgan ishtiyoqini yo'qatadi. Har qanday ta'lim isohoti muvaffaqiyatli bo'lishi uchun oila va maktab o'rtasida uyg'unlik bo'lishi zarur. Bugungi kunda ko'plab ota-onalar bolani maktabga yuborish bilan o'z vazifasini tugatgan deb hisoblaydi. Aslida esa o'qituvchi va ota-ona bir yo'nalishda ishlamasa, natija kutilganidek bo'lmaydi. Ota-onalarning ruhiy-ma'naviy saviyasi butun jamiyatdagi madaniyat darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Agar har bir ota-ona o'z farzandi bilan muloqotda mehr, sabr, tushunish va ishonch tamoillariga amal qilsa, bu oilada tarbiyalangan farzand kelajakda boshqalarga ham shunday yondashadi. Demak ota-onaning o'zi o'qimagan yoki tarbiyaviy bilimga ega bo'lmasa, bu avlodlar orasidagi ijtimoiy tafovutni kuchaytiradi. Masalan, qattiqqo'l, qat'iy nazorat ostida o'sgan bola ko'pincha mustaqil fikr bildirishga qo'rqadi. U o'z hayotida tashabbus ko'rsata olmaydi, chunki bolaligidan unga "sen eplay olmaysan" degan ishonchsizlik singdirilgan bo'ladi. Shu bois, ota-onalarni o'qitish orqali bu psixologik zanjirni uzish va kelajak avlodni erkin, ishonchli,



**WORLD BULLETIN  
PUBLISHING**

Online Publishing Hub

# World Bulletin of Education and Learning (WBEL)

ISSN (E): 3072-175X

Volume 01, Issue 03, December 2025



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://worldbulletin.org/index.php/1>

mustaqil shaxs sifatida voyaga yetkazish mumkin. Ota-ona – farzandning ilk tarbiyachisi. Uyda qo'yilgan muhit, ota-onaning qo'llab- quvvatlashi, tarbiyaviy yondoshuvi bolani maktabga tayyorlashda kata rol o'ynaydi. Agar ota-ona tushunarsiz yondoshuvga ega bo'lsa, bu farzandning maktab ichida yoki uyda motivasiyasini pasaytirishi mumkin. Shuning uchun ota-onalarga ma'naviy-axloqiy va pedagogik treninglar berish juda muhim. Ta'limni faqat maktab yoki pedagoglardan kutish yetarli emas. Agar ota-onalar ham farzandning ta'limiga "hamkor" bo'lsa, maktab va uy o'rtasida hamjihatlik paydo bo'ladi. Shu jihatdan, ota-onalarni tayyorlash- jamiyatdagi ta'lim tizimining umumiy mustahkamligini oshirishga xizmat qiladi.

Ota-onalarni ruhiy va pedagogik tayyorlash g'oyasi nazariy emas, balki haqiqiy, amalga oshirilgan dasturlar orqali sinovdan o'tgan. Masalan, UNODC, UNICEF tomonidan O'zbekistonda joriy qilingan dasturlar shuni ko'rsatadi: ota-onalarni va bolalarni birga jalb qilish orqali tarbiyaviy, xulqiy va o'qish bilan bog'liq ko'nikmalarni oshiradi. Shuningdek, SOS Children's Villages Uzbekistan tomonidan 2021-yilda Urganch shahridagi pilot mahallalarda "parenting skills trainings" -ya'ni ota-onalar uchun 5kunlik treninglar tashkil qilindi. Bundan ota-onalarni pedagogic jihatdan tayyorlash, ularning tarbiyaviy va oilaviy ko'nikmalarini oshirish maqsad qilingan. Ushbu 5kunlik treninglar orqali ota-onalar farzandlarini uy sharoitida qo'llab-quvvatlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish va sog'lom xulq-atvorni shakllantirish bo'yicha bilimlar oladi. Natijada farzandlar maktabda o'qish jarayonida yanada samarali va tayyor bo'lib boradi. Bundan tashqari, 2021-yilda UNICEF O'zbekiston tomonidan 0-6 yoshli bolalar uchun ota-onalarga qo'lbola qo'llanma vazifasini bajaruvchi "Bebbo" nomli mobil ilovani ishga tushirdi-bu lozim bo'lsa ota-onalar uchun bilim berish, qo'llab-quvvatlash vositasi bo'lmoqda, chunki ilova orqali ota-onalar bolalarning rivojlanishi, o'qish va tarbiya jarayonida kerakli tavsiyalar va qo'llab-quvvatlash oladi. Bu, ayniqsa, chekka hududlarda yoki vaqti cheklangan ota-onalar uchun qulay vosita hisoblanadi. Bu tashkotlarning har biri ota-onalarni ma'naviy, psixologik, pedagogic jihatdan tayyorlashga qaratilgan. Maqsad shuki, ota-onalar farzandlarining maktabga tayyorligi va ta'lim jarayonida muvaffaqiyat qozonishini ta'minlay olsin. Shu tarzda, UnODC, SOS



Children's Villages va UNICEF dasturlari bir-birini to'ldiradi: birinchi- oilaviy ko'nikmalarni rivojlantirish; ikkinchi- amaliy treninglar; uchinchi- masofaviy qo'llab-quvvatlash. Shu bilan birga, bu tashabbuslar mahalliy sharoitga moslashgub bo'lishi bilan ahamiyatlidir- qishloq va chekka hududlarda vaqt, resurs va bilimi cheklangan oilalar uchun ham samarali. Bu yondashuv O'zbekistonda ilgari surilayotgan ta'lim siyosatining va o'quvchilarning umumiy rivojlanishi uchun asosiy omil bo'ladi.

Mening fikrimcha, davlat tomonidan yoki ta'lim tizimi orqali ota-onalarga 1 haftalik yoki 1 oylik ma'naviy-ruhiy o'quv kurslari tashkil etilishi juda muhim. Bu kurslarda quyidagi masalalar o'rgatilsa maqsadga muvofiq bo'ladi:

Farzand psixologiyasi va yosh davr xususiyatlari;

Ruhiy bosimni kamaytirish, murosa va muloqot madaniyati;

Bolaga rag'bat berish, ishonch uyg'otish usullari;

Zamonaviy axborot oqimida bolani himoya qilish usullari;

Ota-onaning o'zini-o'zi tarbiyalashi va hissiy barqarorlik.

Shunday darslar orqali ota-onalar farzandining ichki dunyosini anglay boshlaydi.

Ular o'qituvchi bilan hamkorlikda bola uchun qulay psixologik muhit yaratishga o'rganadi. Ota-onalarga mo'ljallangan dasturlar psixologik treninglar, suhbatlar, muloqot mashg'ulotlari, roliklar va seminarlar ko'inishida tashkil etilishi mumkin. Masalan,

“farzandimni qanday tinglashni o'rganaman”- interaktiv trening;

“jazo o'rniga rag'bat”- ota-onalarga mo'ljallangan mahurat darsi;

“oilada mehrlil muloqot”- amaliy suhbat;

“bolam bilan bir kun” – ota-onaning farzand dunyosiga kirish tajribasi.

Bu kabi mashg'ulotlar orqali ota-onalar psixologik moslashuv, hissiy nazorat, muloqot madaniyatini o'rganadi. Shunda jamiyatda shaxsiy intizom, axloqiy barkamollik va o'zaro hurmat kuchayadi. Agar bu tizim yo'lga qo'yilsa, quyidagi ijobiy natijalarga erishish mumkin:

1. Farzandlar o'z fikrini erkin ayta oladigan, ishonchli muhitda ulg'ayadi;
2. Maktab va oila o'rtasidagi hamkorlik mustahkamlanadi;
3. Ruhiiy zo'riqish va oilaviy ziddiyatlar kamayadi;
4. Ota-onalarning ma'naviy saviyasi ortadi, farzand tarbiyasi yuksaladi;



5. Jamiyatda o'zaro hurmat, sabrlilik va mehr kuchayadi. Natijada bola o'zining hayotiy maqsadini aniq biladi, o'zini qadrlaydi va shaxs sifatida shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatda har bir islohot, avvalo, inson ongidan boshlanadi. Farzandlarni ilmi qilishdan oldin ota-onalarni ham o'qitish, ularni ma'naviy va ruhiy jihatdan tayyorlash- bu kelajak uchun eng to'g'ri sarmoyadir. Zero, farzandni tarbiyalashda ota-onaning roli beqiyos: ilmi ota-ona ilmi avlodni tarbiyalaydi; mehri ota-ona mehri jamiyatni yaratadi. Shuning uchun davlat, maktab va jamiyat birgalikda ota-onalar uchun qisqa muddatli o'quv dasturlarini yo'lga qo'ysa, bu mamlakatning ma'naviy poydevorini yanada mustahkamlaydi. Farzand tarbiyasi- bu millatning ertangi kuni. Ota-onalarni o'qitish esa – o'sha kelajakni nurafshon etadigan eng muhim qadamlardan biri. Shunday qilib, jamiyatning barqaror rivoji va ma'naviy poydevorini mustahkamlashda ota-onalarni ilmiy va amaliy jihatdan tayyorlash, ularni farzand tarbiyasida faol ishtirok etishini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Farzandlarni tarbiyalash jarayonida ota-onalarning mehr-muhabbat, bilim va sabr-toqat bilan yondashuvi nafaqat oilaning mustahkamligini, balki butun jamiyatning sog'lom va barkamol avlod bilan boyishini kafolatlaydi. Shu bois, davlat maktab va jamiyat birgalikda ota-onalar uchun qisqa muddatli ta'lim dasturlarini yo'lga qo'yishi, ota-onalarga zamonaviy bilim va tarbiyaviy ko'nikmalarni berish jamiyat taraqqiyotining eng muhim qadamlaridan biridir. Shuni inobatga olgan holda, ota-onalarni o'qitish va ularni farzand tarbiyasida qo'llab-quvvatlash har bir millatning kelajagi va farovonligining asosiy garovidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC). Strong Families Program. <https://www.unodc.org>
2. UNICEF. Family Support and Parenting Programs. <https://www.unicef.org>
3. O'zbekistonda joriy etilgan oilaviy ko'nikmalar dasturlari haqida rasmiy ma'lumotlar: Strong Families va Family UNited dasturlari, UNODC, 2019.